“VODIY1.UZ” RASMIY TELEGRAM KANALIDAGI MUROJAATGA MUNOSABAT

“Vodiy1.uz” rasmiy telegram kanalidagi “Quvasoy shahar Kokilon MFY Ravnaq ko’chasidagi elektr ta'minotining yomonligi hamda ko’chalarni asfaltlashtirish” bo’yicha qilingan murojaat yuzasidan Quvasoy shahar hokimligi matbuot xizmatining rasmiy munosabati

Farg’ona viloyati Quvasoy shahar Kokilon MFY Ravnaq ko’chasida yashovchi Malohat Mamajonovaning ko’cha 40 yil oldin eski ferma transformatoriga ulanganligi, istemol ko’payib simlar yonib ketayotganligi, 10 soatlab svet bo’lmayotganligi, asosiy asfalt yo’l sifatsizligini yozib murojaat qilgan.

Yuqoridagi holat yuzasidan, shahar hokimligi mutasaddilari, shahar Elektr tarmoqlari hamda Yo’llardan foydalanish unitar korxonasi rahbarlari hamda murojaatchi ishtirokida joyida borib o’rganildi.

Ushbu transformator, hozirda to’la quvvat bilan ishlayotganligi, simlar yonmaganligi, faqat kuz-qish mavsumida foydalanuvchi ko’pligi, elektr ta'minotiga ehtiyoj ortganligi sababli tasdiqlangan rejaga muvofiq bir kunda 4 marotaba 6 soat o’chirilishi ko’rsatilgan bo’lsada, amalda 3 marotaba 4 soat o’chirilayotganligi ma'lum qilindi.

Shuningdek, hozirda sovuq harorat sababli ko’chalarni asfaltlashtirishning iloji yo’qligi, kunlar isishi bilan ushbu ishlar amalga oshirilishi tushuntirildi.

Suhbat davomida M.Mamajonova murojaati yuzasidan qoniqish hosil qilganligini ta'kidladi

Quvasoy shahar hokimligi

matbuot xizmati raxbari M.Raimov

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating
Facebook,
2023-01-19 18:59:10